

84 (50=)

M 23 Yoqubjon Mamadaliyev

ALYON UFQLCAR



Yoqubjon Mamadaliyev

ALVON UFQLAR

NIZOMIY NOMIDAGI
TDPU
AXBOROT-RESSURS
MARKAZI

У-9321/
12

«LESSON PRESS»
Тошкент – 2021

УДК: 33.148.328(20)

85(4Ў)8

X8

Yoqubjon Mamadaliyev. Alvon ufqlari. She'riy to'plam — T. “Ilm ziyo zakovat”, 2021, 120 6.

ISBN 978-9943-6324-1-7

© Yoqubjon Mamadaliyev.
© «LESSON PRESS» 2021

BAXT HAQIDA

Yillar o'tdi shamollarday shovullab,
Qancha g'olib qancha mag'lub bo'ldim men
Saxarlarda chaqirardim hay-huylab,
Olislardan bir kun sado berding sen.

Yulduzdayin naq boshimda porlading,
Talpindimu lek yetmadi qo'llarim.
Mayoq bo'lib huzuringa chorlading,
Bugun senga tutashmoqda yo'llarim.

QALAMGA

Shukurki, hech yolg'iz qo'y mading meni,
Yaxshi-yomon kunda hamdardu hamdam.
Faqat sen anglading sharhi dilimni,
Ming shukur, baxtimga sen borsan, QALAM!

QADIMGI OHANGLARDA

Turnalarim, manzilingiz qay yurtlarda, aytigiz,
Olismikan yo'llar – ey
Qaytish payti sog'inchlarim yerga aytib qaytingiz,
Zoriqtirdi kunlar – ey.

Osmon tiniq, osmon zangor yo'llarigiz oq bo'lgay
Manzillar ko'rinoqda
Qaytish payti yo'lingizga ko'zim qo'sh chiroq bo'lgay
Jismimda o't yonmoqda

Turnalarim, jon turnalar, men habar kutmoqdaman,
O'tinchlarim sizgadur.
Mujdalar ilinjida kun sanab o'tmoqdaman,
Hijron yuki ko'p og'ir.

Olis yurtlar ortida diloromim omonmi,
Na savdolar boshida.
Ne-ne orzu, na umidda asraganim bu jonnii,
Fido qilay qoshida.

Ayting-ayting yillar unga solmaganmi gumanlar,
G'uborlar qo'nonganmi.
Ko'ngildagi ishq o'rmini olmaganmi tumanlar,
Olovlar so'nonganmi...

Turnalarim, jon turnalar, men habar kutmoqdaman,
Buncha olis yo'llar -ey
Mujdalar ilinjida kun sanab o'tmoqdaman,
Zaxar-zavqum kunlar -ey

MUHABBAT HAQIDA ALAMLI QO'SHIQ

Men ishqimni endi o'zinga emas
Yomg'irlarga, shamollarga, havolarga aytayin.
Yuragim yonishlarin she'r qilib qog'ozga emas,
Kengliklarga, chaqmoqlarga, samolarga bitayin.

Men botinib qo'llaringa tutolmagan qalbimni,
O'zingamas, endi asov jilg'alarga topshirdim.
Qirg'oq buzar to'lqinlarga qo'shib yuborsin uni,
Imtihonga dengizlarga olib borsinlar atay.

Men ko'nglimni ko'pni ko'rghan alp tog'larga yorayin,
Ozularim ramzi bo'lib unsin alvon lolalar.
Qora-qura, yalang oyoq bolalarga atayin.
Yillar osha ertak qilib so'zlab yursin bolalar.

Erta bahor kurtak yozgan novdalarga aytayu,
Sho'x yellarning qulog'iga shivirlab qo'ysin, mayin.
Bir nafas o'zligimdan, yuragimdan qayta-yu,
So'zlarimni havolarga, navolarga aytayin.
Harqalay,
Senga emas.

NUR

Har kun oqshom derazangda o'ynaydi shula,
Boshing uzra nurin to'kib yonadi yulduz,
Biri senga to tongacha to'qir ashula,
Biri xonang yoritgay to kelguncha kunduz.

Bir kun sening ko'zlarinka ko'chgan o'sha nur,
Bir kun yulduz mehri tushgan sokin qalbingga.
U nur- mening tongday oppoq hayollarimdir,
Yulduz mening ko'zlarimdir, mo'lтирar senga.

KUTILMAGAN BAXT

Meni shosh rib qo'ydi kutilmagan baxt.

Unutdim deganda krib kelishing.

Kelar ekansanku, axir, farog`at,

Bunchalar kechikib ketdi kelishing.

Mana, ostonomda turibsan, illo

Tilimga chiqmaydi dildagi so'zim.

Ichkari kir, deya aytolmayman yo

Eshikni yopmoqqa qiymaydi ko'zim.

(Ostonada esa yashab bo'lmaydi)

SEVGIM

Qo'shiqlar kuylayman tunlar sha'ninga
Ismingni e'zozlab biturman doston
Suyukli bo'l maysan bunday hech kimga
Topolmaysan o'zga menday mehribon

Ishqim harorati, mehrim taftidan
Erib tamom bo'lgay tamallar toshi
Ne baxt senga fido bo'lish baxtidan
Boshingdan nur to'kar qalbim quyoshi

Azizim, inongin, ishq sururidan
Toabad yasharmiz minnaddor, hushbaxt
Shu ma'sum kunlarning yorug' nuridan
Ko'zlarining qamashib qolmasin faqat

ILTIJO

Daqiqalar umri yillarga ko'chdi,
Bir orzu qasdida o'tdi kunlarim.
Boshimdan ne turfa hayollar uchdi,
Sim-siyoh tunlarda qoldi sirlarim.
Umid bilan kechdi besanoq tunlar

Umid bilan kutdim oppoq tonglarni.
Boshimda aylandi qancha fasllar,
Oxiri topdimku, panohim seni.
Endi sen yorlaqa, ayla muruvvat,
Boshimga baxt bo'lib boytan, muhabbat!

Boshimga baxt bo'lib boytan, muhabbat,
Quyoshday bezavol, nurday yarqiroq.
Sensiz hayot asli emasku, hayot,
Nechun o'z-o'zini aldab yashamoq?!

Ne turfa hayollar aylanur bu dam,
Ne turfa hayollar o'ynar boshimda.
Sen-hayot, sen-umid, orzu bo'lib jam,
Yarqiroq turibsan bu kun qoshimda.

Sensiz yasham oqqa yo'q endi toqat,
Jonimga jon bo'lib joylan, muhabbat!
Jonimga jon bo'lib joylan, muhabbat,
Zotan, hali ishqda maddohlar ko'pdır.

Hamon yonma-yondir sen bilan nafrat,
Hamon majruh etar ba'zi nopol dil.
O, sen muhabbatim, senku buyuksan,
Sani panohida asrasin yurak.

Sani anglash uchun, asrash uchun bilsang,
O'zingday pokiza yurak ham kerak.
Endi o'zing qo'lla, bir o'zing faqat,
Ikki dil mulkiga aylan, muhabbat!

USHISHOQ

Yoriltoshim, hey yoril, shavqat qilsangchi, menga,
Bu tun buncha cho'zildi.

Yoshligim kerak, yillar, qaytib bersangchi, menga,
Yurak-bag'rim ezildi

Bu kecha qachon tugar, qachon yorishar osmon,
Quyoshini kuldirib.

Kuymi bu yoki xasrat Karbalo dashtida
Bo'zlab yurgan bo'zturg'ay.

Yo qalandar oshiqmi, to'ygan dunyo dastidan
Bir dam tinsa na bo'lgay?!

Bir dilga buncha ozor, bir dilga shuncha dardmi,
Yo bormidi maloli?

Dunyoda buncha xasrat, bunchalar qo'shiq dardli
Qiynalib borar jonim.

Bas qil, qo'shiqchim, bas qil, shundog'am vayronku dil,
Yo menda bormi qasding?

Ey dunyo yoki g'amdan yaralangansanmi butkul
Hech tugarmi hasrating?!

Yoriltoshim, hey yoril, yonlsangchi, yoriltosh...

SEN...

Sen – yulduzsan shu'lalangan, porlagan,
Sen – kamalak ming rangda tovlanguvchi.
Sen – quyoshsan qalbimda olovlangan,
Oysan hayot yo'llarim yoritguvchi

Sen – yuksaksan, sen – umidsan, sen – armon,
Sen – ko'zimda yongan ziyo-nur bo'lib.
Sen borsanki, yashaydurman men omon,
Sen tomonga, yuksaklarga intilib.

HAYKAL QOSHIDA

/ akam xotirasiga /

Olis brest shahrini qoq o'rtasida
Noma'lum jangchilar haykalin qurdim.
Beism hayollar portanasida.
Haykallar poyiga lolalar qo'ydim.
Mangu pospondir Vatanga ular,
Haykallarga nedir so'zlagim kelar:

Dunyo olov ichra xansirab nochor,
Eng buyuk insondan kutganda najot.
Fashizm qo'lida bo'lma deb abgor,
Bobolar ruxiga qilib qasamyod,
Jangu jadallarga kirgan ajdodim,
Olamga qayta nur bergen ajdodim.

Yovuzlik yo'qolsin deya dunyodan,
Eng oliv tilaklar qolsin deb omon.
Zamin yosharsin deb nурдан, ziyodan
Yoshgina jonidan kechgan qaxramon,
Poyingdan bir siqim tuproqni olib,
Qarshingda turibman o'ylarga tolib.

O'tli bir sog'inish kezar tajamda,
Ko'zimni yoshlaydi beayov alam.
O'ttiz yilcha burun, omonsiz jangda
Benishon yo'qolgan mening ham akam.
Balkim o'sha shaxid akamdursan san,
Sog'ingan dilimga taskin berarsan?!

Qancha yillar o'tdi, yurt-dorilamon,
Bugun rejamizda fazolar sayri.
Mening, yuragimda faqat bir armon.
Bizlar ko'rishmadik urush tufayli
Sen – o'sha qalbimda mangu armonsan.
Sen o'sha – fidoiy, mard qaxramonsan!

O'limga o'q bo'lib qadalding jangda,
Vatan e'tiqoding topdiku sayqal.
Yodgor bo'lsin deya olis avlodga
Sening xotiranga qo'ydilar haykal
Bugun ash'or bitar sha'ningga sharaf,
Ziyoratga kelar G'arb-u sharq taraf.

DO'STIM

Derazangni ochib qo'y, do'stim,

Izlab ketdi seni o'ylarim.

Derazangni ochib qo'y, do'stim,

Oqsin sog'inch to'la kuylarim.

Izlab ketdi seni o'ylarim.,

Derzangni ochib qo'y, do'stim,

Uylaringa kirib borayin.

Shodlik bo'lib, bo'lib sho'x nasim

Tuyg'ularing gulag o'rayin.

Uylaringa kirib borayin.

Derazangni ochib qo'y, do'stim,

Eshitmaysan nega zorimni?!

Birga – birga yodlaylik bir zum

O'tgan ma'sum damlar yodini.

Eshitmaysan nega zorimni?!

Derazangni ochib qo'y, do'stim,

Kutaverib toldiku toqat!

Sendan dunyo tilamas dastim

Men mehringga tashnaman faqat.

Kutaverib toldiku toqat!



Qarshimda yuz yillik masofa turar,
Ko'z kabi yaqinu, yulduzday yiroq,
Olisdan shu lador qasr ko'rinar
Men unga intilib boryapman, biroq-

She'riyat atalgan sirli dunyoda,
Endi tili chiqqan go'dakman hali.
Yurak, yonishlaring etmagin kanda,
Tunlar halovatim yo'qolsin, mayli

Trikman, bezovta ilhom qonimda,
Buyuk orzu bo'lib qaynasin, ammo-
Hali aytilajak gap ko'p qalbimda
Umrим, yugurishdan sen to'xtab qolma!

SENDAN HIMMAT KUTMOQLIK BEKOR

Sendan himmat kutmoqlik bekor,
Garchi ulug' bo'lsada noming.
Gar olamni tutsada shoning,
Sendan himmat kutmoqlik bekor.
Nachora, sen shunday yaralding,
Dunyo asli doimo bir kam.
Shuncha shuhrat, shuncha shin bilan
Umidvorsan devonadan ham.

VIDOLASHUV

Bizlar ko'ishmasmiz endi yuzma-yuz
Himoya qilmasmiz bir-birimizni.
Olis – olislardan qoldi sevgimiz
Qo'l yetmas joylardan imlaydi bizni.

Ishqning harorati so'ngani tanlarda
Va bizda hech narsa qilmaydi talab.
Faqat bizlar boshlagan yo'lida
Uning tuhi yurar chirqirab...

MENING YURAGIMGA KETAYLIK

Rauf Parfi

Bizlarni kutmoqda eng go'zal qismat,
Bizga yuz ochmoqda ajib bir dunyo
Ketaylik, u yerda yo'qdir xusumat,
Ketaylik, u yerga yo'lamas riyo.

Boqiy yashar olur unda muhabbat,
Sadoqat, vafoga rahnamodir ul.
Unda gul joniga qilarlar shafqat,
Unda qasidalar to'qiydi bulbul.

U mening qalbimdir, sen uchun dunyo,
Dunyoki, mezboni quyosh muhabbat.
Unga sen parvosiz qarama va yo
Sen uni ranjitib qo'ymagil faqat.

Aziz boshginangni ko'ksimga qo'ygin,
Uning otashiga yo'rileylik biz.
Mening yuragimga ketaylik, yurgin,
Bizni kutib qoldi sho'rlik dunyomiz...

SOG'INCH

Boshimda aylanar qorlar uchquni
Chiroqlar nurida cho'milar shahar
Ko'chalar ko'zidan quvib uyquni
Oqara boshlaydi junjikkan shahar

Men yolg'iz jo'nayman yurakka solib
Sog'inch deb atalgan tuyg'u dardini
Qorli ko'chalardan ko'zimga olib
Olis qishlog'imning oppoq rangini

Rost so'zim, onajon, yurak qiyinalar
Bir intiq tuyg'ula sog'indim sizni
Ariq bo'yidagi bo'ychan teraklar
Soqchiday qurshagan tor hovlimizni

Nogoh vujudimda sezaman titroq
Hazonrez shaharda qorli izg'irin,
Sokin pichirlaydi bir so'zni shu choq
Yoninga jo'nayman erta yo indin

Qadim Farg'onada keksa chinorlar
Shoxiga ilinib mudraydi tun
Bu yurak qaygadur shoshib zorlanar
Ayriliq shomini quvmoqlik uchun

Men tug'ilib o'sgan kaftdek qishloqda
Bir ayol yashaydi ma'sum, bokira
Men unga maktublar yoznадим hatto
U ham menga xatlar yo'llamas sira

SIZ...

Go'zallik mulkining malikasi siz
Sizdan ta'sir olgan eram gullari
Siz-munis singilsiz, yorsiz, onasiz
Sizga hasaddadur jannat hurlari

Siz-sohir san'atsiz, hayot timsoli,
Poklik andozasi, vafoga mezon
Siz- Odam Atoning suyuk qizlari...
Lekin bir andisha azaldan-azal

Dunyoda notanti savdolar ko'pey
Birniki mingayu, mingniki tuman
Aslida ming emas bitta ham ko'pday
Yetniltak tannozlar sizni ko'rgan on

O'ta taxir so'zlar tushib yodimga
Negadur o'ksinib, kuyinib jonlar,
Achinib ketaman taqdiringizga
Ex ba'zi qo'lma-qo'l yurgan ayollar

CHINOR

Kuzgi bog'da shamol izg'ir, unga ermək yaproqlar
Daraxtlar astagina oh chəkib kuyar yorib
Bo'ronlarni pisand qilmay yashagan mag'rur chinor
Bugun ne hol shamollarga bo'y egmoqda tebranib

Chinorning yuragida armon bor zildan og'ir
Umr o'tdi, yoshlik ketdi. hayot kechdi dolg'ali
Shamollaı ermək qilsa qumsatar o'sha mag'rur
Bo'ronlarni bo'ysundirgan, shovullagan chog'lari

BAXTIM

Mana senga qalbim-imon, vijdonim,
Senga sadoqatim, mehrim ziyoda
Ko'zlarimga tikil, anglab ol jonim
Sen mening umidim yorug' dunyoda

Mana senga umrim, jonim-jahonim
Mana senga tolib tuzmagan toqat
En mening armonim, sen saodatim
O'ttiz yil axtargan seni faro'gat

Mana senga baxtim, dardim, quvonchim,
Hammasini tutdim, panoh bo'l o'zing
Huzuringa keldim shuncha yo'l bosib
O'ttiz yil umrimdir birgina so'zing

QUYOSH BOTAYOTGAN CHOG'

Ufq- alvon, Ufq yonar bo'zarib
Asta-asta so'nar qirmiz nurlari
Bu dunyo naqadar hissiz va g'arib
Bo'lib ko'rindi ko'zimga mani
Quyosh botayotgan chog'

Injiq sog'inchimga hayollar ulfat
Uning og'ushidan istarman orom
Panohim, mehringdan tilarkan shafqat
Menga torlik qilar poyonsiz olam
Quyosh botayotgan chog'

Ona zamin uzra qo'yilganda shom
Orzuday, armonday hadsiz, poyonsiz
Yolg'izim hayollaring ulfatim shu on
Meni bu duniyoda qoldirna yolg'iz
Quyosh botayotgan chog'

Mana senga...

Mana senga qo'lim, yaxshilab qara...

Muhammad Ali

Mana senga qalbim, imon, vijdonim,
Senga muhabbatim, mexrim ziyoda.
Ko'zlarimga tikil, anglab ol, jonioim,
Sen mening umidim yorug' dunyodan.

Mana senga umrim, jonioim-jahonim,
Mana senga tolib tuzmagan toqat.
Sen mening armonim, sen saodatim,
O'ttiz yil axtardim seni, farog' at.

Mana senga baxtim, dardim, quvonchim,
Hammagini tutdim, panoh bo'l o'zing.
Huzuringa keldim shuncha yo'l bosib,
O'ttiz yil umrimdir birgina so'zing.

ARMON
(do'stim R.X. ga)

Bugun olisda yoshlik, bolalik qilmishlari
Kamalak rangi yanglig' ma;sum go'zal orzular.
Bizga meros qoldirib bu dunyo tashvishlarin
Sezmay qoldik, yo'lchiday tark etib ketdi ular.

Yillar hamon bizlarni ta'qib etmoqda zimdan
Yoshlik hamon bizardan ketib borar sezdirmay.
Kun kelaru bu yillar bizning o'ychan ko'zlardan
Porlayotgan nurlarini yig'ib olar bezdirmay.

Huv olisdan rangorang, ufqqlarning chetida
Kimdur bizni chorlamoqda sehrgarday sehrlab
Boryapmiz shoshqaloq yillarning qanotida
Armonlaru orzularni yuraklarga muxrlab

EY BAHOR!

Yaproqlar bandida kuz hayol surar,
Lahzalik suktuda vido va viqor.
Yalang' och novdalar seni tush ko'rар,
Ey bahor, ey bahor, ey bahor!

Moviy kengliklarda tizilgan karvon,
Turnalar ketishi dillarni yoqar.
Seni qay yurtlardan axtarar sarson,
Ey bahor, ey bahor, ey bahor!

Sayroq qushchalarining yashil maskani,
Mo'jaz hiyobonda tentirar shamol.
So'niq tuyg'ularim qumsaydi seni,
Ey bahor, ey bahor, ey bahor!

Senku, qaytajaksan, qaytarsan albat,
Senga oq yo'l bo'lib, yog'ayotgan qor.
Bir kun dunyolarni to'ldirib shoyad,
Bag'rimga qaytsaydi, ul munis dildor,
Ey bahor, ey bahor, ey bahor!




Mamadaliyev Yoqubjon va Mamadaliyeva Soxibaxon



Тошкент, Дүрмөндөгү ижод үйи. Республика ёш ёзучилари III семинаридан.
1984 ишт 19-24 февраль





ПЛАМЕННЫЙ ПРИВЕТ
участникам семинара!
СЕМИНАР КАТНАШЧИЛА
РИГА АЛАНГАЛИ САЛОМ!



Тоикент, Дўрмондаги ижод ўйи. Республика ён ёзувчилари III семинаридан.
1984 йил 19-24 февраль

SOG'INCH XATLARIM

Men sizga maktublar yozyabman,
Bittamas- yuztalab, mingtalab.
Daftar-daftar maktublarimni
Yoqib yuboryabman yurakka qalab.

Maktublar yozyabman, mahbubim,
Yonmoq qismatidan satrlar bo'zlar.
Sizga armon mening maktubim
O'qilmagan otashin so'zlar.

Maktublar yozyabman, qalbimni,
Tarjima etmoqda qog'ozga qalam.
Va bir kun bitarman shunday maktubni
Siz ko'zga surtgudek, mening begonam!

QOR YOG'MOQDA...

Qor yog'moqda...

Qor yog'moqda lo'ppi-lo'ppi oppoq qor,

Ranglar quyunida ko'zlarim tinar.

Men seni qutlayman, do'stim, ushbu dam

Yog'ayotgan oppoq qor bilan.

Yangi oy ko'rinsa tavof qilurlar,

Fasllar almashsa shukrona takror.

Do'stginam, men seni qutlagim kelar

Rizqu ro'zing bo'lib yog'ayotir qor.

Qaragin. Nechog'lik go'zal bu kecha,

Shivirlay boshlabdi hatto sukunat.

Go'yo boshing uzra oqqushlar uchar

Yurakda uyg'otib oppoq bir niyyat.

Tasbeh axtaraman ushbu tasvirga

Oppoq uylarimni oqlikka yo'yib.

Zotan yog'ayotgan qor emas, yerga

Umidlar yog'moqda oppoq qor bo'lib.

Nasibang oq bo`lgay qorli daladay,

Kafolat beradur kumushrang nahor.

Yurakda uyg'ongan oppoq umidday

Shu qorlar ostida uyg'onur bahor.

Qor yog'moqda lo`ppi-lo`ppi oppoq qor.

Dardlarga ko' milib ketdi yuragim,
She'r yozib, she'rimdan yupanch izlayman.
Tashqarida yomg'ir yog'adi sim-sim,
Men esa yomg'irga dardim so'zlayman

Senki tushunmading mening tuyg'umga,
Senki yuragimni etmading fahm.
Shu kecha bag'rimni ochdim yomg'irga,
Lekin qulog'inga yetmagay ohim.

Bu kecha tun bo'yi tinmadi yomg'ir,
Mening hasratim ham shunday beadoq.
Ismingni qalbinidan chiqarmoq og'ir,
Og'irdir ismingni qalbdan chiqarmoq.

IBTIDO

Tun.

Yulduzlar sarosimada,

Yuragin hovuchlab turibdi oy ham...

Zamin harakatdan to'xtagan go'yo...

Nogahon

Borliq qalqib ketdi sevinchdan,

Dunyoni to'ldirdi go'dak yig'isi,

Oy yengil tin oldi,

Osmon esa murg'ak yulduzchani ko'ksiga oldi.

YANGI YIL MAKTOUBI

Qo'limda tovlanur lolarang sharob,
Orzular, istaklar jamlanur bu dam.
O'zini kumushrang libosga o'rav,
Oppoq bir chiroyga to'immoqda olam.
Bu kech boglar bag'ri qorlarga to'lsin,
Zaminga bu oqlik muborak bo'lsin.

Sal egik qaddida sakson bahorni
Dast ko'tarib yurgan paxlavon otam.
Bag'ringiz shu qorlar kabi oxorli,
Paxtakor o'zbekisiz, tantisiz, xotam,
Endi yurt shuxrati bizda jo'sh ursin,
Otajon, yangi yil muborak bo'lsin.

Yillar tarog'idan sochingizda oq,
Bag'ringizga timsol behudu jahon.
Poyingiz biz uchun qutlug' sajdagoh,
Men sizni qutlayman, aziz onajon,
Shu munis chexrangiz nurlarga to'lsin.
Onajon, yangi yil muborak bo'lsin.

Menga orzu bergen, ishq bergen, otash,
Sevgilim, boshingda panohing o'zim.
Umrimning mezoni, aziz yelkadosh,
Yonimda charaqlab turgan yulduzim.
Shu yulduz to abad boshimda kulsin,
Yulduzim, yangi yil muborak bo'lsin.

Yugurar umr o'tli soat millari,
Men hamon she'rimga tashbeh izlayman.
Tunni yalay boshlar tongning tillari,
Fikrimga qo'!] urib, she'r tig'izlayman.

Tun bo'yi izlanib, topganlarimni,
Tong bilan quyoshga xushhol tutaman.
Kun bo'yi quyoshdan olganlarimni,
Tun bilan she'r qilib, tongni kutaman.

ISHQIM

Men ishqimni balki oshkor qilmadim,
Shamollarga topshirardim qalbimni.
Lekin sendan dil uzib ketolmasdim
Balki bir kun tan olgay deb sevgimni.

Bu kun vazmin nigoxida qaltirab
Porlayotgan nurday yorug' o'ylarim.
Misralarga jahoniy qudrat joylab
Yuraginga suron solgay she'r larim.

Oxiri bir kun sening moviy ko'zingga
Mening o'ychan muhabbatim ko'chadir
Uzun tunlar bo'ysunmayin izmingga
Hayollaring men tomonga uchadir.

Bir kun kelib ismimning har bir harfi
Senga aziz bo'lib qoladi jonday.
Bir kun oxir she'r larimning har satri
Yuragingga jo bo'ladi qur'onday.

Tole ko'chsa tabriklaysan shonimni,
Menga oməd bo'lib qolar tilaging.
Nogox kiñdir tilga olsa nomimni
O'zing sezmay qalqib ketar yuraging...

Ana, buyuk hayot gulshani aro
Nurday yonib o'tib borayotgan sen!
Bu dunyodan telba darvesh, ovora
Seni kuylab borayotgan men!

CHORLOV

Sevguvchi bag'irda uzilmagay jon

RASUL XAMZATOV

Turnalar uchmoqda olis yoqlarga,
Sog'ingan qalbimda tuyg'ular qo'zg'ab.
Yana yo'lim tushdi bu so'qmoqlarga,
Yana qaytib keldim izlaring izlab.
Biroq sen bunda yo'q, sen yiroqlarda,
Balki yetib bormas senga ovozim
Bizdan xotiralar qolgan bog'larda
She'r ayтиb tinglayman o'zimni-o'zim.

Azizim, faxrli tonglar otmoqda.
Ko'zimni tindirar zangor tiniqlik.
Huv olis turnalar qanot qoqmoqda,
Bu bir qaytarilmas tongi iliqlik.

Qadrdon dalalar bag'riga kelgin,
Oqshom nafasida kezaylik hushxol.
Samoviy kuylardan yayrasin ko'ngil.
Qo'shiqlar yozmoqda ko'kdagi hilol

Ular faqat soya, soyadir holos.
Yarqiroq chaqmoqlar chaqqan mahali
Yomg'irga aylanur, bulurlara bas.
G'iybatlar to'kissin mayli shamollar,

Shamollar o'tkinchi-o'tkinchi faqat.
Jonginam, hech qachon bilmaydi ular
Nechog'li buyukdir bizning muhabbat.
Jahongashta qushlar ortidan qolmay,
Yur, olam kezaylik, yurgin mexribon.
Saodat yo'llarin o'tarmiz tolmay,
“Sevguvchi bag'irda uzilmagay jon”.

XATO QILDIK

O'ylayman yo'l berdik g'ururga.
Oy ho'rsinib jilib ketdi g'arbgan tomon.
Yulduzlar ham qalqib-qalqib so'nib ketdilar
Erdi bizga
Oyli kecha og'ushida beso'z termilish.
Yulduzlarning shivirini dillarda to'yish,
Titrayotgan barmoqlarni entikib suyish...
Nasib etmaydi.
Biz
Xato qildik.

Qarshimda yuz yillik masofa turar,
Ko'z kabi yaqinu, yulduzday yiroq.
Olisdan shu'lador qasr ko'rinar
Men unga intilib boryapman, biroq
She'riyat atalgan sirli dunyoda,
Endi tili chiqqan go'dakman hali.
Yurak, yonishlaring etmagan kanda,
Tunlar halovatim yo'qolsin, mayli
Tirikman, bezovta ilhom qonimda.
Buyuk orzu bo'lib qaynaysan, ammo
Hali aytilajak gap ko'p qalbimda
Umrim, yugurishdan sen to'xtab qolma!

BOLALIKNING TUGASHI

Yulduzim der edim, yulduzim ko'zinga boqib,
Oy yuzlim der edim, oydek yuzinga boqib.
Keyin bir kun chindan ham sen yulduzga aylanding.
Yetmay qoldi qo'llarim.

O'zga paroh osmonida yangi oydek porlading,
Ayro bo'ldi yo'llarim.
Shu tun tongacha qizlar g'amgin o'lan aytdilar,
Oppoq saxar paytida seni olib ketdilar.

Tunlari qaro qildi surma tortgan ko'zlarling,
Saxarlarni oqartirdi rangsiz, oppoq yuzlaring.
Shu kun nogoh ayrildim bolaligimdan, qumrim,
Shu kun boshlandi mening o'ychan yigitlik umrim.

YURAGIM

Dardlarga ko'milib ketdi yuragim.
She'r yozib she'rimdan yupanch izlayman.
Tashqarida yomg'ir yog'ai sim-sim,
Men esa yomg'irga dardim so'ylayman.

Senki, tushunmading mening tuyg'umga
Senki, yuragimni etmading fahm.
Shu kecha bag'rimni ochdim yomg'irga,
Lekin qulog'inga yetmagay ohim.

Bu kecha tun bo'yi tinmadi yomg'ir,
Mening hasratim ham shunday beadoq.
Ismingni qalbimdan chiqarmoq og'ir,
Og'irdir ismingni qalbdan chiqarmoq.

ILTIVO

O'ylayverib toldi o'ylarim
Ololmadi ixtiyorningni.
Iltijoga to'la kuylarim
Tutolmadi hayollariningni
Sen ketcingu, senga uzatgan
Titroq qo'lim qoldi noumid
Xayolimda gulday bezatgan
Orzularim bo'lmadim sobit...

Bugun Navro'z seni so'roqlab
Lolazorga, tog'larga bordim
Nigohingni yulduzdan izlab
Tabassuming guldan axtardim

Dalalardan chorladim seni
Har kurtakka dardimni ochdim
Yurakdag'i hasratlarimni
Lolalarining bag'rige sochdim

Izlab, izing topolmagach men,
Kiprigimga darrray ilinding
Shu kech zangor qo'shiq bo'lib sen,
Yuragiimda qayta tug'ilning.

SHUKRONA

Shukur qil, azizim, shu osmon haqqi,
Ona zamin haqqi aylagin shukur.
Qutlug' lahzalarga shukrona o'qi,
Muqaddas yurt hokin ko'zlarinka sur.

Shukur qil, azizim, quyosh bezavol,
Beminat nur to'kar bosh uzra balqib.
Shukur qil, yangi oy ko'rsatdi jamol,
El omon, yurt omon, omondir xalqim

Shukur qil, azizim, yulduz charog'on,
Orom og'ushida mudrayotir tun.
Nurda cho'mayotir kunchiqar tomon,
Ertamiz yorug'dir, rizqimiz butun.

Shukur qil, azizim, orzular omon,
Osuda tebranar dunyo belanchak
Shu dunyo ichida biz ham yonma-yon
Birgamiz, birgadir bizla kelajak

Shukur qil, azizim.....

VIDOLASHUV

Bizlar ko'rishmasmiz endi yuzma-yuz
Himoya qilmasmiz bir-birimizni.
Olis-olislarda qoldi sevgimiz
Qo'l yetmas joylardan imlaydi bizni

Ishqning harorati so'ngan tunlarda
Va bizdan hech narsa qilmaydi talab
Faqt bizlar boshlagan yo'lda
Uning ruhi yurar chirqirab...

Tikilaman rangin samoga,
Qorlarini elar shiddatkor.
Qo'llarimni tutaman qorga,
Kaftlarimda erib ketar qor.

Tikilaman, bir hikmat borday,
Nogoh qalqib ketar yuragim.
Umring qisqa bo'lmasa qorday
Mening notinch, oq umidlarim.

YOZ

Qo`limga bir dasta gul keltirdi yoz,
Shu gulni yuzingga ayladim qiyos,
Har gal o'sha gulag termulganimda
Gul husning ko'raman, ko'nglim bo'lar yoz!

Qo`limga bir dasta gul keltirdi yoz,
Shu guldek ochildi ishq dilda qiyg'os.
Bu kuni uni senga taqdim ayladim,
Bilmadim, javobsiz qolmasmikan roz?!

BAHOR

Bahor chaqmoqlari chaqnadi yana,
Qirlarda alvonrang shafaqlar yondi.
Bulutlar marvarid yog'di imgina,
Mudragan qoyalar uyg'onib qoldi.

Yana sog' inchlarga ko'mildi dunyo,
Yana ungurlarga ohu jonsarak.
Quyoshga bog'langan tasimaday go'yo,
Samo chetidagi rangin kaimalak.

Ko'ngay ay vonchaga tortib belanchak,
Navjuvon cnalar aytishar alla.
Oynaga yashirin boqib kelinchak,
Qoshiga o'smalar tortar shu palla.

Cho'ponlar suruvin haydadi toqqa,
Yana tog'u toshni tutdi qiyqiriq.
Ana, dehqon yigit saxiy tuproqqa,
Yo, nasib deb tashladi urug'

Huv olmos cho'qqidan qo'zg'oldi burgut,
Sohilda uchrashdi ikki dil yolg'iz.
Ko'klamga shukrona aytadi yigit,
Bir boylam chechakdan sarxush bo'lди qiz.

Qizning ko'zlarida olovlanur ishq,
Yigit taklif etar lola sayliga.
Bulbul gul qoshida boshladi qo'shiq...
Shu bahor sababchi bari-bariga.

BIRGA YASHAYMIZ!

So'nayotgan umidday titrab
Ufqlarda rang uchgan kezlar.
Sog'inch hissi qalbianni o'rtar
Shivirlayman, sizga yulduzlar
Birga yashaymiz!

Yuz ko'rsatar kumushrang sahar
Targab ketar dildagi ro'yo.
Osmon tiniq, umidli nahor
Hayqiraman ey oppoq dunyo
Birga yashaymiz!

Quyosh yonar quyoshim mening
Bu tong mening tongim bo'lajak
Peshvoz chiqar yoshliling sening
Qo'llimiz tut, nurli kelajak
Birga yashaymiz!

SUR'AT

Necha yillar cho'ntagingda asrading uni,
Asrading eng noyob narsaday bilib.
Kunlarni kuzatding kutmadi seni,
Tonglar qarshilading unga sig'inib.

Faqat sur'at qoldi endi anglarsan.
Qarg'ab ham qolarsan olis dilbarni.
Ammo, ayt, kimlardan qaytib olarsan
Cho'ntagingda o'tgan o'sha yillarni?!

ACHCHIQ HAYOT

Go'dakka eng avval kulishni o'rgatdilar
Keyin eng qutlug' so'zlarni so'zlatdilar.
So'ng barcha yaxshi odatlarni jam etib,
Shakillandi nurli tushuncha.

Yillar o'tdi.
Bir kun odamlar
Kulib turib oyog'idan oldilar,
Shirin-shirin so'zlab turib so'zlaridan tondilar...

Lekin
Sobit qoldi tushuncha.
Faqat
Anglab yetdi
Kurash degan so'zning ma'nosin.

CHORLOV

Turnalar uchmoqda olis yoqlarga,
Sog'ingan qalbimga tuyg'ular qo'zg'ab.
Yana yo'lim tushdi bu so'qmoqlarga,
Yana qaytib keldim izlaring izlab.

Biroq sen bunda yo'q, sen yiroqlarda,
Balki yetib bormas senga ovozim.
Olis xotiralar qolgan bog'larda
She'r aytib, tinglayman o'zimni-o'zim

Azizim, faraxli tonglar otmoqda,
Ko'zingni tindirar zangor tiniqlik.
Xuv olis turnalar qanot qoqmoqda,
Bu bir qaytarilmas tonggi iliqlik.

Qadrdon dalalar bag'riga kelgin,
Oqshom nafasida kezaylik xushhol
Samoviy kuylardan yayrasin ko'ngil.
Qo'shiqlar sochmoqda ko'kdagi hilol.

Xorg'in bu utlardan o'taylik nari,

Ular faqat soya, soyadir holos.

Yarqiroq chaqmoqlar chaqqan mahali

Yomg'irga aylanur, bulutlar abas.

G'i ybatlar to'kishsin mayli shamollar,

Shamollar o'tkinchi, o'tkinchi faqat

Jonginam, hech qachon bilmaydi ular

Nechog'li buyukdir bizning muhabbat.

Jahongashta qushlar ortidan qolmay,

Yur, olam kezaylik, yurgin, mexribon.

Saodat yillarin o'tarmiz tolmay,

“Sevguvchi bag'irda uzilnagay jon”

SIRLI MUHABBAT

Men ishqimni balki oshkor etmasdim,
Shamollarga topshirardim qalbimni.
Lekin sendan dil uzib ketolmasdim
Balki bir kun tan olgay deb sevgimni.

Bu kun vazmin nigohimda qaltirab
Porlayotgan nurday yorug' uylarim
Misralarga jahoniy qudrat joylab
Yuraginga suron solgay she'r larim.

Oxir bir kun sening moviy ko'zingga
Mening o'ychan muhabbatim ko'chadir.
Uzun tunlar bo'sunmayin izmingga
Xayollaring men tomonga uchadir.

Bir kun kelib ismimning har bir harfi
Senga aziz bo'lib qoladi jonday.
Bir kun oxir she'r larimning har satri
Yuragingga jo bo'ladi qur'onday.

Tole ko'chsa tabriklaysan shonimni,
Menga omad bo'lib qolar tilaging.
Nogoh kimdir tilga olsa nomimni
O'zing sezmay qalqib ketar yuraging...

Ana, buyuk hayot gulshani aro
Nurday yorib o'tib borayotgan sen
Bu dunyoda telba darvesh, ovvora
Seni kuylab ketib borayotgan men

HAQIQAT

Bu oddiy haqiqat
Shunday kun kelar,
So'ngi yo'lga kuzatarlar meni ham.
Tengqur jo'ralarim mensiz qaytishar
Sokin xilxonadan boshin qlib ham.

Bilmayman, bu qachon, qanday yuz berar
Qay kun uziladi yerdan izlarim
Faqat shunday kunda do'stlarim ichra,
Boshim uzra sen bo'lmasang gar
Bu dunyodan ochiq ketar ko'zlarim.

OLAM

Quyosh yerning oshig'i emish,
Baxsh etarmish yurak taftini.
Osmon yulduzlarni suyarmish
Ham oy emish uning maftuni
Shular bilan butunmish olam.

Quyosh yeri uzra aylanar,
Osmonida porlaydi yulduz.
Mening yurak-bag'rim qiyinalar
Nega bizlar boshqa-boshqamiz
Naxot, bizsiz butundir olam...

O'YLARIM

O'ylayverib toldi o'ylarim,

Ololmadi ixtiyoringga.

Iltijoga to'la kuylarim,

Tutolmadi xayollaringni.

Sen ketcingu senga uzatgan,

Titroq qo'lim qoldi noumid.

Xayolimda gulday bezatgan,

Orzularim bo'lindi sobit...

Bugun navruz, seni so'roqlab,

Lolazorga tog'larga bordim.

Nigohingni yulduzdan izlab,

Tabassuming guldan axtardim.

Daraxtlardan chorladim seni

Xar kurtakka dardimni ochdim.

Yurakdag'i hasratlarimni,

Lolalarning bag'riga sochdim

Izlab, izing topolmagach men,

Kiprigimga darrray ilinding.

Shu kech zangor qo'shiq bo'lib sen,

Yuraginda qayta tug'ilding.

UMRIM

Yugurar umr otli soat millari,
Men hamon she'rimga tashbex izlayman.
Tunni yalay boshlar tongning tillari,
Fikrimga qo'l urib, she'r tig'izlayman.

Tun bo'yi izlanib, topganlarimni,
Tong bilan quyoshga xushhol tutaman.
Kun bo'yi quyoshdan olganlarimni,
Tun bilan she'r qilib tongni kutaman.

TO'RTLIKLAR

I

Avval o'z qalbinga o'zing sodiq bo'l,
To'tidek sayrama o'zgalar so'zin.
Har kim o'z baxtiga o'zi ochar yo'l,
Har kim o'zi kashf etar o'zlogin.

II

O'qdan yaralangan burgut bolasi,
Moviy kengliklardan uzmay ko'zini.
Qoyalarda suron solmoq qasdida,
Temir panjaraga urar o'zini.

III

Men she'rlar yozaman bag'rimni tig'lab,
Tog'day og'ir dardni qog'ozga to'kib.
Sen esa ko'zningni qaygadir qadab,
Yig'laysan, men yozgan she'rlarni o'qib

IV

(Hazil)

Yuzlaringa boqdim,
Sen kibrlanding.
Ishqimda yonyabdi deding beisos,
Axvolimdan kulding, aslida menchi,
Shunchaki bir qarab qo'ygandim holos.

ARMON

Raxmon Aliga

Bugun olisda yoshlik, bolalik qilmishlari
Kamalak rangi yanglit ma'sum, go'zal orzular.
Bizga meros qoldirib bu dunyo tashvishlarin
Sezmay qoldik, yo'lchiday tark etib ketdi ular.

Yillar hamon bizlarni ta'qib etmoqda zimdan
Yoshlik hamon bizlardan ketib borar sezdirmay.
Kun kelaru bu yillar bizning o'ychan ko'zlardan
Porlayotgan nurlarini yig'ib olar bezdirmay.

Huv olisdan, rangorang ufqlarning chetidan
Kimdir bizni chorlamoqda sehrgayday sehrlab.
Borayabmiz, shoshqaloq yilarning qanotida
Armonlaru orzularni yuraklarga muxrlab

XATO QILDIK

Xato qildik.

O'ylamay yo'l berdik g'ururga.

Cy parishon suzib ketdi g'arbga tomon.

Yulduzlar ham qalqib-qalqib suzib ketdilar.

Endi bizga

Oyli kecha og'ushida beso'z termulish,

Yulduzlarning shivirini dillarga tuyish.

Titrayotgan barmoqlarni entikib suyish...

Nasib etmaydi.

Biz- xato qildik

Qarshimda yuz yillik masofa turar,

Kuz kabi yaqinu, yulduzday yiroq.

Olisdan shu'lador qasr ko'rinar

Man unga intilib boriyabman, biroq

She'riyat atalgan sirli dunyoda,

Endi tili chiqqan go'dakman hali.

Yurak, yonishlaring etmagan kanda,

Tunlar halovatim yo'qolsin, mayli

Tirikman, bezovta ilhom qonimda,
Buyuk orzu bo'lib qaynasin, ammo-
Hali aytilagach gap ko'p qalbimda
Umrim, yugurishdan sen to'xtab qolma!

BO'Z QO'SHIG'I

Jon qishlog'im, bolaligim qolgan yo'llardan bu kun
Tonga qadar behalovat ilhomimni ahtardim.
Sorijuga bo'ylarida xislarga bo'lib tutqun
Shaningga she'r bitishday qalbimda sharaf tuydim.

Kechagina eng yashirin xislaramni she'r qilib
Sevgilimga oydin tunda o'qib bergandim ilk bor
Bugun qalbim shoirona xayollarga g'arq bo'lib
Seni ko'rkam jamolinga q'shiq bityabman bedor.

Ko'r Shernatga panoh bo'lgan Sho'rtepa barxanlari,
Darvozakum cho'llarini kezib chiqdi o'ylarim.
Bugun dilga ilhom berar yangi baxt ohanglari
O'sha baxtning kuylariga qorishiqdir kuylarim.

Bir vaqtlar Madaminbek yigit to'plagan cho'lda
Bugun ne tong shiringina shahar chiroy ko'rsatar.
Kim ishonmas, ushbu dasti ko'kka yetgan vatanda
Mening jajji qishlog'imni baxtli istiqbol kutar.

Bugun dilda g'urur bilan she'r aytarkan sha'niga
Tuymoqdaman cho'l elimning serishvayi jodusini.
Shu boisdan ta'rif aytdi ahli donolar senga
"Oltin darvozasi" deb Farg'ona vodiysini.

Chunki xalqim jazm etsa buyuklikning ishiga
“Oq oltin”dan samoga ham qo’ya olur xavoza.
Bilamizki, bunda mehnat sharaf eltar kishiga
Shu boisdan Mannobjonlar yurtga bo’lmish ovoza.

Ota yo’lidan bormoq o’zbakka azal umid
Men ham shu cho’l bag’rida tug’ilib yozdim qanot.
Bugun dexqon elimning ser qadoq qo’lin tutdim
Ko’rish yaratish ishqি dilda yoniq shijoat.

Kelajakni ko’rmoqdaman tengdoshim timsolida
Kechagina komsomollik yoshiga to’lgan edik.
Bugun tutash Yozyovonning ko’xna sahrolarida
Yangi shahar barpo etib “Komsomol” deb atadik.

Ammo, hamon bizni kutar buyuk-buyuk yumushlar
Yangi qutlug’ rejalar bor albat bir-bir bitadi.
Buyuklikni qarshisida nima ekan bu ishlar
Hali bizning dovrug’imiz samoni ham tutadi.

Yaratuvchi cho’l elimni she’rga soldim muloyim.
Xayolimda mo’jazgina shahar qomat ko’rsatar
Bu- mening bo’z atalgan aziz tug’ilgan joyim.

YULDUZ

Yulduzimiz bormish ikkimizning ham
Charaqlab yonarmish toki tirikmiz.
O, qodir tabiat qilsayu karam
Yulduzga aylanib qolsak ikkimiz.

Bir parcha osmonim tark etib ming bor
Yoningga uchardim qay burchda bo'lsang.
Menga ne zaminu ne samo darkor
Agar sen yonimda charaqlab tursang.

QOR

Tikilama rangin samoga,
Qorlarni elar shiddatkor.
Qo'llarimni tutaman qorga.
Kaftlarimda erib ketar qor.

Tikilaman, bir himat borday,
Nogoh qalqib ketar yuragim.
... Umrinq qisqa bo'lmasin qorday
Mening munis, murg'ak she'rلарим.

AYOLLAR

Go'zallik mulkining malikasi Siz,
Sizdan tasvir olmish eram gullari.
Siz- munis singilsiz, yorsiz, onasiz
Sizga hasaddadir jannat xurlari.

Siz soxir san'atsiz- hayot timsoli,
Poklik andozasi, vafoga mezon.
Siz odam Atoning suyuk qizlari
Lekin, bir andisha azaldan-azal

Dunyoda notanti savdolar ko'pey,
Birniki mingayu, mingniki tuman.
Bilsangiz mingtamas bitta ham ko'pday
O, ba'zi ayollar sizni ko'rghan on

O'sha taxir so'zlar tushib yodimga,
Negadur o'ksinib, kuyinib jonlar.
Eh, ba'zi qo'lma-qo'l yurgan juvonlar.

TABRIK

Kuz quyoshi sersahova^t nurini to'kmoqdadir,
Paxtazor tillolanib shu'laga to'lmoqdadir.
Yurt bu tong dovruq so'lib hush sado bermoqdadir,
Davraga g'olib, muzaffar paxtakor kelmoqdadir.
So'zlasin, paxta ilmin usta dexqon so'zlasin,
Tinglasin, ahli olam, O'zbekiston so'zlasin.

Bu yurt azaldan-azal paxta ilmin makoni,
Qaddi yuksak, fe'li keng mardi mardonlar qani.
Yetti iqlimga yetdi yurting ta'rifi, shoni,
Qo'llaridagi ol bayroq g'oliblikning nishoni.
Bu kun g'olib, nishondor bobo dexqon so'zlasin,
Tinglasin, ahli olam, O'zbakiston so'zlasin.

Qad ko'tardi katta xirmon orzuyu uylar bu kun,
Ortda qoldi ne devonlar, zaxmatli yil, oylar bu kun.
Tabiat o'zi senga tasanno so'ylar bu kun,
G'olib elda tong bilan boshlanar to'ylar bu kun.
Katta to'yda to'yboshi bobodexqon so'zlasin,
Tinglasin, ahli olam, O'zbakiston so'zlasin.

Bir taraf dovrqli elning sheryurak lochinlari,
Bir tarafda ahdi qattiq, bir so'zli yurt Barchinlari,
Bir taraf paxta ilmin ustmon yo'l boshchilari.
She'r aytishga shoshma do'stim, bu kun g'oliblar gali
So'zlasin, paxta ilmin bobdexqon so'zlasin,
Tinglasin, ahli olam, O'zbakiston so'zlasin.

So'zlasin, tog'larga bo'y-bo'y lashgan paxta xirmon paxtadan,
Qurran olam a'ro topding sharaf-shon paxtadan.
Senga tabrik, senga ta'zim-barcha olqish senga tan,
Ey, toleyi paxtaday yarqiroq, oppoq Vatan,
So'zlasin, paxta ilmin bobdexqon so'zlasin,
Tinglasin, ahli olam, O'zbakiston so'zlasin.

MUVASHSHAH

Muhabbat qalbimga bo'ldiyu. mehmon.
Umrin kitobiga yozdim zar lavha.
Hayot- ko'rish deya imzo chekdiyu,
Azmi muhabbat deb qo'ydi sarlavha.
Bebosh o'ylarimni qo'lidan tutdi,
Baxsh etdi qalbimga bir olam surur.
Ajab, taqdirimga seni bitdiyu.
Tolyeim baxtiyor etdi bir umr. 1974-yil

QUSHCHA

Bir qushcha bulutlar belanchagida,
Telba shamollarga uchar qasdma-qasd.
Nechog'li jur'at bor qara qushchada,
O'zin shiddatida o'zi ham sarmast

Sen uni olqishla, qutla parvozin,
Mitti qanotiga quvvat bo'l go'yo.
Shu jajji qushchaga madad bo'l o'zing,
O'zing toqatiga to'zim ber dunyo.

1980

SHAMOL

Chinorlar shoxida uxlaydi shamol.
Telba dovullarni shirin tush ko'rib.
Yaproqlar jimgina suzadi hayol,
Shamolni uyg'otib qo'yishdan qo'rqib

Bu telba qudratni anglab bo'lmaydi,
Yo unga ermakmi, azim chinorlar.
Na yulqib ko'klarga ota olmaydi,
Na tinch qo'ymaydi, osilaverar.

YURAK

Rauf Parfiga

Biz birga yaraldik

Bitta vujudda.

Bizga nasib etdi yagona qismat.

Qani ayt, yuragim, men noshud banda,

Yayrata oldimmi seni bir fursat.

Garchi xiyonatlar qilmadim minba'd,

Tangrim deb sig'indim senga, sarbonim.

Nokas qarshisida turmadim qaqlab,

Oyoqlar ostiga seni otmadim.

Nomard raqibimning g'olib kulgusi,

Tantana qilganda keltirdimu shak,

Bir og'iz haq so'zning haqligi uchun

Yuzlariga otdim men seni yurak!

Ega chiqmas ekan har kim ahliga,

Har kim o'z yo'liga ketdi odimlab.

G'iybatlar to'qishdi hatto biz haqda

Ba'zi do'stingman deb yurgan odamlar.
Hatto sevgiling ham tanimas seni,
Ko'zlarin ko'r qilgan bachkana havas.
Bu ne ko'rgulikdir javob bei, qani.

Qo'lingga boqarlar, qalbingga emas.
Yuragim, sen mening yorug dunyomsan,
Senda orzularim topganlar panoh.
Men senga talpinib yashayveraman,
Boshqacha bo'lishi gunohdir-gunoh!

CHORLOV

Sevguvchi bag'rda uzilmagay jon

Rasul Xamzatov

Turnalar uchmoqda olis yoqlarga,
Sog'ingan qalbimda tuyg'ular qo'zg'ab.
Yana yo'l'm tushdi bu so'qmoqlarga,
Yana qaytib qoldim izlaring izlab.

Biroq sen bunda yo'q, sen yiroqlarda
Balki yetib bormas senga ovozim.
Olis xotiralar qolgan bog'larda
She'r aytib, tinglayman o'zimni-o'zim
Azizim, faraxli tonglar otmoqda,
Ko'zimni tindirar zangor tiniqlik.
Huv olis turnalar qanot qoqmoqda,
Bu bir qaytarilmas tonggi iliqlik.

Qadrdon dalalar bag'riga kelgin.
Oqshom nafasida kezaylik xushhol.
Samoviy kuylardan yayrasin ko'ngil.
Qo'shiqlar sochmoqda ko'kdagi hilol.

Xorg'in bulutlardan o'taylik nari,
Ular faqat soya, soyadir xolos.

Yarqiroq chaqmoqlar chaqqan mahali
Yomg'irga aylanur, bo'lurlar abas.

G'iybatlar to'qisin mayli shamollar,
Shamollar o'tkinchi, o'tkinchi faqat
Jonginam, hech qachon bilmaydi ular
Nechog'li buyukdir bizning muhabbat.

Jahongashta qushlar ortidan qolmay,
Yur, olam kezaylik, yurgin, mehribon.
Saodat yo'llarin o'tarmiz tolmay.
“Sevguvchi bag'rda uzilmagay jon”

TUSH KO'RIBMAN...

Tush ko'ribman,
Tushimda sen: –
Qo'llaringdan tutgan emishman.
Quvonchimdan tilim emish lol,
Hayajondan titrar emishman.

Uzoq ayriliqni qoldirib ortda
Nihoyat vaslingga yetgan emishman.
Sen, kulib ketishga chog'lanarmishsan
Men esa "ketma" deb yolvorarmishman..

Cho'chib uyg'ondimu, xayolga toldim
Shirin xotiralar chulg'adi bir dam.
...Nahotki, qalbimga lahcha cho'g' solib
Butun vujudimni kuydirsang, erkam...

ORZU

Agar zaruratdan tug'ilsa so'zlar,
Agarda ochilsa tarixning yuzi.
Qachon, kimga boqqan alamli ko'zlar,
Kimga darkor bo'lgan bevafo so'zi?

Riyokor odamlar bo'lmasa agar,
Mezon – vafo bo'lsa sevgi izmida.
Xijronu xiyonat shu kabi so'zlar,
Balki bo'lmasmidi lug'atimizda.

Balki, yozmas edik mahnunona bayt,
Balki, dil oynasi tortmasdi xira.
Shundaylar bo'lmasa, ey shirin hayot,
Yanada bo'larding go'zal, bokira.

NUR

Har kun oqshom derazangda o'ynaydi shu'la
Boshing uzra nurin to'kib yonadi yulduz,
Biri senga to tongacha to'qur ashula,
Biri xonang yoritgay to kelgunch kunduz.

Bir kun sening ko'zlaringga ko'chgan osha nur,
Bir kun yulduz mehri tushgay sokin qalbinga.
U nur – mening tongday oppoq hayollarimdir,
Yulduz- mening ko'zlarimdir, mo'ltirar senga.

O'YLARIM

Necha kunki, yo'qolgan tinchim,
Nimadir qalbimni ezar ayovsiz.
Dunyo ishlariga yetmagach aqlim
Alamdan ko'zlarim yoshlanar ojiz.

Tarixku, yillarsiz bo'lmaydi paydo
Tarixsiz yuksalmas zaminu zamon.
Men sir axtarmadim tarixdan, ammo-
Ba'zi sirli so'zlar qilmoqda xayron.

O'ylayman shu tilisiz, ko'xna dunyoda
Sevgi ilk bor qachon tug'ilgan ekan.
U qo'shiqday qadim bo'lsa agarda
Birinchi oshiqlar kim bo'lgan ekan.

Ular ham muhabbat sehr ila yonib,
Uzun kechalari qo'shiq bitganmi?
Va yo Mashrab kabi qismatdan nolib
Navoiy singari tanxo o'tganmi?

Bilmayman, kimlarga va qaysi vaqtda,

Ilk da'fa o'qilgan nikox qissasi.
Zamin deb atalgan sirli xilqatda
Qachon tug'ildiykan vafo shevasi.

Mayli kim bo'lmasin, islom, o'tparast,
Zardushti bo'lsa ham va yo kim dinsiz.
Ularga qalbimda yonmoqda havas
Ularning ruxiga xurmatim cheksiz.

SIYOHDON HAQIDA BALLADA

Alisherga

Parchalanib yotar siyohdon...

Buyuk edi undagi bardosh.

Ko'ksin o'yib to'l dirsada qon.

Qiynoqlarga bergen edi dosh.

Buyuk edi undagi bardosh.

Nashtar sanchib yarador ko'ksin,

Etsa hamki min bor qontalash,

Ezgu yo'lga tiqqandi o'zin.

Ne sirlarning bo'ldi guvohi,

Ne dillarni payvand qildi ul.

Lekin bir kun qabih niyyatli,

Nopok kimsa unga cho'zdi qo'l...

Shunda birdan ko'ksidagi qon,

Portiladiyu, sindi siyohdon.

KO'ZLARING

Avväl meni ayladi maftun
Kuyla dedi sal qo'shiq bilsang
Qarolikda erur misli tun
Kuyla dedi gar oshiq bo'lsang.

Kuyla dedi gar oshiq bo'lsang
Oshig'imana, kuylayman albat.
Kuyla dedi agarda sevsang,
Yuragimda so'zlar qatma-qat.

Yuragimda so'zlar qatma-qat
Bari senga, sening tufayli
Ammo, senga shumi sadoqat
Yo shumidi yuraging mayli.

Shu edimi yuraging mayli
O sehrgar, beshavqat ko'zlar.
Meni etib sevgi gədoyi
Endi yana kimlarni ko'zlar?!

BAHOR

1

Bahor chaqmoqlari chaqnadi yana,
Qirlarda alvonrang shafaqlar yondi.
Bulutlar marvarid yog'di jimgina,
Mudraga qoyalar uyg'onib qoldi.

Yana sevinchlarga ko'mildi dunyo,
Yana ung' urlarda ohu jonsarak.
Quyoshga bog'langan tasmaday go'yo,
Samo chetidagi rangin kamalak.

2

Kungay ayvonchaga tortib belanchak,
Navjuvon onalar aytishar alla.
Oynaga yashirin boqib kelinchak,
Qoshiga o'smalar tortar shu palla.

Cho'ponlar suruvin haydadi toqqa,
Yana tog'u toshni tutdi qiyqiriq.
Ana, dehqon yigit sahiy tuproqqa,
Yo nasib, deb tashladi urug'.

Huv olmos cho'qqidan qo'zg'aldi burgut.
Sohilda uchrashdi ikki dil yolg'iz.
Ko'klamga shukurona aytadi yigit,
Bir boylam chechakdan sarhush bo'ldi qiz.

Qizning ko'zlarida olovlanur ishq,
Yigit taklif etar lola sayliga.
Bulbul gul qoshida boshladi qo'shiq...
Shu bahor sababchi bari-bariga.

MUHABBAT

Bola edim

Sho‘h edim, quvnoq.

Kelmas edi birovga rashkim.

Yurar edim tashvishdan yiroq

Yo‘llar edi mening sirdoshim.

Ertangi kun, ertangi baxtim

Ishqi bilan olardim nafas

Kelajagim, yorqin hayotim

Og’ushida bo‘lar edim mast.

O, muhabbat beshavqat tuyg’u

Men ham asir bo‘ldim dominga.

Shundan buyon ichkanday og’u

She‘r bitaman seni nominga.

Shundan buyon kirnnidir izlab

Va kimgadur qilaman nola.

Kechalari hayolan so‘zlab

O‘rtanaman, yuragim pora.

Ammo, sendan nolimayman, yo'q
Mayli sina bardoshim, kuchim.
So'zim tingla o, bedavo o`q

Faqat shudir sendan o'tinchim:
Meni yolg'iz qoldirma usiz
Olib ketma qalam qoshimni
Kechalari bo'zlatma unsiz

Ko'zlarimdan to'kma yoshimni
Shunda sening qadring beqiyos!
Menga faqat vafo bo'lsa bas!

BURGUTNING O'LIMI HAQIDA ALAMLI QO'SHIQ

Cho'chib tushdi mudroq qoyalar,

Titrab ketdi yalang'och sukut.

Shovullamay qo'ydi daryolar-

Uchayotib o'q yedi burgut.

U kengliklar farzandi edi,

Pok~~za~~ ruh, mag'rur, shiddatkor.

Uchayotib nogoh o'q yedi...

Qanotlarin qistaydi bekor.

Charx urarkan, aylanib giryon

Qanotlari majolsiz tolar.

Ko'zlarida zangori osmon-

Kengliklarning armoni qolar.

Ko'zlarida yonmagan orzu

Ko'zlarida alamlı faryod.

Xayol kabi ozod edi u

Ozodlikka o'q uzdi sayyod.

Tashlanadi jonsiz taniga,

Sayyod ovga o'rgatkan itlar...

Alam bilan burgut holiga

Achchiq-achchiq yig'lar bulutlar.

TO'RTLIKLER(2)

1

Yo'l yo'qki, hayotda tekis va ravon,
Odamlar qoqilmay yuolsa unda.
Orzuga intilib bermoqdaman dosh,
Baxtimni ko'raman yuksak cho'qqida.

2

Bu ishq sadosimi, qalbim tirnagan,
Bulbul navosimi, yo gul nozimi?
Mayliga, muhabbat qiyناسىن qalbim,
Valekin sevgimga sen ham rozimi?

3

Muhabbat, muhabbat qanchalar shirin,
Qanchalar berahim shu bir og'iz so'z.
Bechora oshiqlar sevinar goho,
Gohida nechalar yig'laydi unsiz.

4

Buncha oqil, buncha suluvsan,
Buncha ajib, buncha jilvakor!
Ammo, nega meni ko'rganda
Bag'ritoshsan, buncha sitamkor!

IKKI SHE'R

I

Rayhon xidlarini sochib olamga
Asta tebratardi shoh, mayin sabo.
Va uni tortqilab qochar har yonga
Shabboda aylamish ahdiga vafo.
Ammo o'z taxtiga chiqqanda quyosh
Nachora, shabboda tindi shu zamon.
O, rayhon yuzida yiltiradi yosh,
Yig'latib qo'ydingku, uni beomon.

II

Yor ishqqi qo'limga tutqazib qalam
Qalbimga she'riyat ishqini soldi.
Ul ko'kka boqqinchi, do'stim shul zamon
Balki she'riyatda bir chaqin yondi.

TO'Y

Samoga jar solib yangrar chirmanda.
Ikki dil dostonin kuylaydi rubob.
Qizlar qo'shiq kuylar, ishqiy chamanda
Kimdir qadahlarga to'latar sharob.
Yana bir baxt to'yi, qo'shni hovlida
Eng yaxshi tilaklar etilar izhor
G'unchalab ochsin u, sevgi bog'ida
Tilaklarga nuqta bo'lmasin zinhor!

Do'stlarim! Ushbu to'y baxt muhri bo'lsin
Muhabbat bahori yashnasin doim!
Hayot gulshanida chechaklar kulsin
Kelin-kuyovlarni qutlab muloyim.

Shu kecha o'lanlarga ulansin yor-yor!
Hayotdan baxtlarin topsin ikki yor!

O'TINCH

Yoshim ham bo'libdi o'ttiz chamasi.

Qora sochiimni ham oralabdi oq.

Hayot dengizida umrim kemasi

Yo'lim mashaqqatli yo'llarim yiroq.

She'riyat atalgan sirli dunyoda

Endi tili chiqqan go'dakman hali.

Yurak, yoqishlaring etmagin kanda

Tumlar halovatim yo'qolsin mayli

Tirikman, bezovta ilhom qonimda,

Buyuk orzu bo'lib qaynasin, ammo-

Hali aytilagach gap ko'p qalbimda

Umrim oxiridan sen to'xtab qolma!

Yo'lim mashaqqatli, manzilim yiroq.

SOHILDAGI O'YLAR

Dengiz uchra kichik bir qayiq,
Oldga intilar sekin.
Hop xorigan qayiqchi chol,
Zo'rg'a olar tin.

To'lqin uni goho ortga
Surib ketadi.
Qayiqchiga qarab qoldim,
Nigohim siniq.

O'ylarimni olib ketdi
Shu kichik qayiq.
Men ham hayot dengizida
Bir qayiq xolos.

Suzib o'tgum goh qayiqdek,
Goh bo'lib g'ovvos.
Meni ham goh qaylargadir
Suvlar oqini.
Qayiqchadek olib ketar
Hayot to'lqini.

Airmo, meni qaytarolmas
Harna qilsa ham.

Chunki, murg'ab qalbimda bor
Muqaddas rejam.
Orzum shuki, insonlarek
Inson bo'lolsam.

She'r ishqil-la nafas olsam,
Yonsam! Yonolsam,
Umrim bo'yi tushirmasam
Qo'lidan qalamni.

She'rlarimda kuylab o'tsam
Shu gul vatanni!..
Bir kun hayot dargohidan
O'z o'rnim topgum!

O'sha qutlug' orzularim
Qo'lidan tutgum!

O'ZBEKISTON

Ko'hna sharq ko'ksida zabardast diyor,
Shu diyor o'g'liman, menga tole yor.
Buyuk Navoiyning qadami yetgan,
Shu aziz tuproqda ulg'aydi tanim.

Mirzo Ulug'bekni kamolga eltgan
Shu go'zal chamadir, Vatanim manim.
Shu go'zal chamanda yoru do'stlarim,
Shu aziz tuproqda kindigim qoni.

Siz, dilkash odamlar, ko'rар ko'zlarim
Shu mo'jaz gulshanda qalbim sultoni.
Bu shunday diyorki, Hamid Olimjon,
Aytib ulgurmagan qo'shiqdir bori.

Bu shunday diyordir, hazon bilmas jon-
G'ofurning dunyoga taratgan shoni.
Bu shunday diyorki, ahli dcnolar,
Jannat deb atagan yurtdir, bezavol.

Bu shunday diyordir, oltin yerida
“Oq oltin” unadi, rizqu ro'z unar.
Zahmatkash dehqonning manglay terida.
Sharafli mehnatning zavqi ko'rinar.

BAHOR O'YLARI

Bahor keldi gulga burkanib,
Daraxtlarga taqdi ko'k marjon.
Gulga bulbul roz aytar yonib,
Ko'zlarimda titrar hayajon.

Tog'u toshda quvnaydi ohu,
Gul shohida o'ynar kapalak.
Men-chi, seni izlayman gohi,
Topolmasdan bo'laman halak.

Mana bugun bahoriy bayram,
Davralarda do'stlar gurungi.
Seni eslab ko'zlarimda nam,
Yuragimda ayriliq yuki.

Har bahorda intizor bo'lib,
Sendan darak kutarman hamon.
Toleimda yulduzday kulib,
Chaqnamading dildagi armon.

Shunday o'tib boryapmiz, mana,
Yillar o'tar suvday yugurik.
Toleingga etmading oshno,
Baxtimga ham bo'lmading sherik.

SENI SEVAMAN

(Hazil)

Ilhon keldi, yozayinmi she'r
Yozayinmi eng yaxshi g'azal
So'zla, erkam, sen maslahat ber
Ay'tganingni qilaman zad.

Sen so'zlasang sevgidan yonib
Sadoqating doston etayin
Firoqingda qolsam o'rtanib
Alamdan ham bir she'r bitayin

Hissiz chiqsa bu she'rim agar
Yuragingga shubhalar solsam
Ranimagin va kul'ma zinhor
Sababchisi o'zingsan erkam

O'zingsanku, butun vujudim-
Borligimni rom etgan dildor
Agar shuncha beparvo bo'lsang
Bo'ylaringni etajakman dor!

Va u dorning ostida turib,
Sochlaringni sirtmoq etaman.
Hamda deyman “seni sevaman”.
Sevging bilan o‘lib ketaman...

Yaxshiyamki ilhom xayoli
Va bir zumlik harorat ekan
Yo‘qsa, do‘stlar shu bir sevgi deb
O‘ladigon ahmoq bormikan?!

Lof uramiz, har bir satrda
Sadoqatli sevgi deb mangu
Mana, men ham sevmasamda yor
She’rda uni do‘ndirvordim-ku!

O*TINCH

O'n sakkiz yoshimda sevgandim seni
Qalbimni qo'lingga tutgandim u kun
Ammo sen parvo ham qilnading balki-
Qalbimga tashlading ta'nalar yukin.

Qancha kun, qancha oy, hatto yil o'tdi
Men esa hijronga beroldim bardosh
Afsuski, nomingni dil unutganda
Qarshimda turibsan, ko'zlariningda yosh.

Yo'q, ta'na qilmoqchi emasman aslo
Lekin o'sha kunni unutolmayman
Axir, rad etganding, endi-chi, endi-
Qalbingga harorat baxsh etolmayman!

MEHRIMOMONING YO‘QLOVI

Laylak keldi, yoz bo‘ldi,
Qanoti qog’oz bo‘ldi.
Bolam, seni bu dunyoda
Ko‘rganlaring oz bo‘ldi.

Uzun-uzun izlarda
Poezdlar olib ketdi.
Ortingga qaray-qaray
Ko‘zlarining tolib ketdi.

Izingdan xatlar uchdi,
Qaytishlari oz bo‘ldi.
Xatlarining kuta-kuta
Toqatim qog’oz bo‘ldi.

Qaytib kelaman degan,
Aldab ketgan bolam-ey.
Yer qattiq, yiroq osmon,
Xudolarga nolam-ey.

Oh uying kuysin, urush,
Ko‘klarda qoldi nolam.
Fashist degan olomon
Seni ko‘p ko‘rdi, bolam
Seni ko‘p ko‘rdi, bolam!

SEN...

Sen- yulduzsan shu'lalangan, porlagan,
Sen- kamalak ming rangda tovlanguvchi.
Sen- quyoshsan qalbimda olovlangan,
Oysan, hayot yo'llarim yoritguvchi.

Sen- yuksaksanı sen- umidsan, sen- armon.
Sen- ko'zimda yongan ziyo nur bo'lib.
Sen borsanki, yashaydurman men omon,
Sen tomonga, yuksaklarga intilib.

ESLASH

Qor yog'ar, Samoda qorishar ranglar,
Qor yog'ar, Borliqni bosadi mudroq.
Meni yengib borar qora gumonlar,
Betayin ilinj-la kezaman qishloq.

Kumushrang parchalar raqs etar ko'kda,
Qanotiga olib uchar shamollar.
O'tgan damlar yodi yonar yurakda
Qarang qanday qorli oqshomlar.

Yodimga to'shadi barcha-barchasi...
Achchiq pushaymonlar tashlaydi tilib.
Ey, mening ko'zimning nurli parchasi.
Men seni qalbimda yurarman olib.

Yillar o'tib ketar. Umr-yugurik,
Ismim yuragingdan o'char, beshavqat.
Sen mening dardimga yasharman faqat.
Mayli, ko'zlaringni yumaqol mendan,
O'ylama, dunyoda yo'g'u borimni.
Faqat, bir zumgina, qor yoqqan damlar
Sen ham eslab qo'ygin, mening nomimni!

OTA ALLASI

/o'g'lim shavkatga/

Sen hali go'daksan jajji, polapon,
Endi yo'lga kirding shodon qiyqirib.
Hali sen bilmaysan nimadir armon
Biz qanday yashadik, qayga intilib.

Bir kun ulg'ayasan, anglarsan shunda.
Sen ham kurashlar-la yasharsan u choq.
Lekin, polaponim, sening qoningda
Qaysi ezgu hislat yasharkan ko'proq.

Nurga intilarsan otanday , balki
O'zingga mangulik kashf etarsan.
Yovqur zamondan dunyoni bilki,
Sen ham farzandingga omon eltarsan.

Sen qo'lda tutajak alvon bayroqda
Unutma, bobolar qoni borligin.
Kurashlar bo'lmasa tole qayoqda
Dunyo bo'larmidi shunchalar gul-gun.

Bizlar jang qilmadik jangohlar aro,
Lekin tafakkurni kurashga otdik.
Bobolar shonini qildik himoya,
Buyuk etiqodlar uchun kurashdik.

Chunki, misterlar bor ocean ortida
So'ngi jarohati hali bitganmas.
Hamon vahshiylar bor inson zotida
Ona yer ulardan bo'limgan halos.

Lekin, sening baxtiing boqiy, umrzoq
Eng qutlug' Vatanga nabira bo'lding
Bokira etmoqchun dunyoni mutloq,
Kurashchan farzandi bo'lib tug'ilding.

Sening zimmangdadir qutlug' tuproqni,
Ranju balolardan xalos etmoqlik!
Buyuk e'tiqodlar safari uchun,
Sen ham kurashlar-la yasharsan beshak.

YO'LDAMAN

Abadiy yo'ldaman ammo, do'stlarim,

Ko'zlagan manzilim juda ham olis.

Abadiy yo'ldaman ammo, ko'zlarim,

Ba'zida hushchachaq, ba'zida mayus.

Qyerga bormayin, qayda bo'lmayin,

Ko'raman, do'stlarning ko'zida xanda.

Tunlarni uyqusiz o'tkazdim, bedor,

Yo'lda ham odatim etmadim kanda.

Hali ham yo'ldaman, nim qorong'u, tun,

Bir chaqin lip etib yondi-yu, so'ndi.

Bir nafas bo'lsa ham yoritdi yo'lim

Shuningchun shu'lasi qalbimda qoldi.

Do'stlarim, umidim shu chaqin kabi,

Bir lahza bo'lsa ham chaqnasam, yonsam.

Roziman, bir nafas sochib shu'lamni

So'ngra shu chaqindek mangu yo'qolsam.

Odamlar, ayb etmang, men ham qo'limga

Umidla olurman qalamim har gal.

Umidlar uchquni chorladi yo'lga

Shuningchun borurman manzilga jadal.

SENI KECH TOPGANDIM, ERTA YO'QOTDIM.

A.Oripov.

Hayollar m sen tomonga yetaklar meni,
Hayollar m yo'llaringda kezar sarbasar.
Saxarlarda sabolardan so'rayman seni,
Oqshomlari hiyobondan axtaraman, zor.

Topolmayman, bir bargdayin titrab tolaman,
Yulduzlarga yolvoraman: "Qani u, qani?!".
Orzularim chil-chil bo'lar, ortga qaytaman,
Qalamimni tarashlayman dardim to'kkani.

Uyqu eltar, juftlashadi kipriklarim ham,
Xonam uzra yana sukut qilar tantana.
Alam qilar, uyqumda ham hattoki, sanam,
Tinch qo'ymansan, tushlarimga kirasan yana.

Shu choc cho'chib uyg'onaman, titrayman yonib,
Aytgan, bugun qaylardasan umrim bahri!
Shu dam kimdur baxtiyormi vaslinga qonib,
Shu dam sening "boshing uzra kimning panohi?!".

Shu kech dilda titroq bilan baxting tiladim,
She'rlarimga tanxo sababkorliging uchun.
Sendan o'zga qalb o'tican yona olmadim,
Chunki... chunki sen dunyoda borliging uchun.

BAHOR O'YLARI

Bahor keldi gulga burkanib,
Daraxtlarga taqdi ko'k marjon.
Gulga bulbul roz aytar yonib,
Ko'zlarimda titrar hayajon.

Tog'u toshda quvnaydi ohu,
Gul shoxida o'ynar kapalak.
Men-chi, seni izlayman gohi,
Topolmasdan bo'laman halak.

Mana bugun bahoriy bayram,
Davralarda do'stlar gurungi.
Seni eslab ko'zlarimda nam,
Yuragimda ayriliq yuki.

Har bahorda intizor bo'lib,
Sendan darak kutarman hamon.
Toleyimda yulduzday kulib,
Chaqnamading dildagi armon.

Shunday o'tib boryapmiz, mana,
Yillar o'tar suvday yugurik.
Toleyinga etmading oshno,
Baxtimga ham bo'lmaiding sherik.

MUNDARIJA

BAXT HAQIDA	3
QALAMGA	4
QADIMGI OHANGLARDA	5
MUHABBAT HAQIDA ALAMLI QO'SHIQ	6
NUR	8
KUTILMAGAN BAXT	9
SEVGIM	10
ILTIJO	11
USHSHOQ	13
SEN...	14
HAYKAL QOSHIDA	15
DO'STIM	17
SENDAN HIMMAT KUTMOQLIK BEKOR	19
VIDOLASHUV	20
MENING YURAGIMGA KETAYLIK	21
SOG'INCH	22
SIZ...	24
CHINOR	25
BAXTIM	26
QUYOSH BOTAYOTGAN CHOG'	27
MANA SENGA...	28
ARMON	29
EY BAHOR!	30
SOG'INCH XATLARIM	31
QOR YOG'MOQDA...	32
DARD	34
IBTIDO	35
YANGI YIL MAKTUBI	36
UMRIM	38
ISHQIM	39

CHORLOV	41
XATO QILDIK	43
YO'L	44
BOLALIKNING TUGASHI	45
YURAGIM	46
ILTIJO	47
SHUKRONA	48
VIDOLASHUV	49
QOR	50
YOZ	51
BAHOR	52
BIRGA YASHAYMIZ!	53
SUR'AT	55
ACHCHIQ HAYOT	56
CHORLOV	57
SIRLI MUHABBAT	59
HAQIQAT	61
OLAM	62
O'YLARIM	63
UMRIM	64
TO'RTLIKLAR	65
ARMON	66
XATO QILDIK	67
BO'Z QO'SHIG'I	69
YULDUZ	71
QOR	72
AYOLLAR	73
TABRIK	74
MUVASHSHAH	76
QUSHCHA	77
SHAMOL	78
YURAK	79

CHORLOV	81
TUSH KO'RIBMAN...	83
ORZU	84
NUR	85
O'YLARIM	86
SİYOHDON HAQIDA BALLADA	88
KO'ZLARING	89
BAHOR	90
MUHABBAT	92
BURGUTNING O'LIMI HAQIDA ALAMLI QO'SHIQ	94
TO'RTLIK LAR(2)	95
IKKI SHE'R	96
TO'Y	97
O'TINCH	98
SOHILDAGI O'YLAR	99
O'ZBEKISTON	101
BAHOR O'YLARI	102
SENI SEVAMAN	103
O'TINCH	105
MEHRIMOMONING YO'QLOVI	106
SEN...	107
ESLASH	108
OTA ALLASI	109
YO'LDAMAN	111
SENI KECH TOPGANDIM, ERTA YO'QOTDIM.	112
BAHOR O'YLARI	113

Yoqubjon Mamadaliyev

ALVON UFQLAR

Bosishga ruxsat etildi. 01.07.2021 y.

Qog'oz bichimi 60x84 1/16. Times New Roman
garniturasida terildi.

Ofset uslubida oq qog'ozda chop etildi.
Nashriyot hisob tabog'i 6.25, Adadi 500. Buyurtma № 18
Bahosi kelishuv asosida

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universitetining bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahar Chilonzor tumani,
Bunyodkor ko'chasi 27 uy.



Yoqubjon Mamadaliyev 1947-yilda Andijon viloyati Bo'z tumanida tavallud topgan. 1955-1965 yillarda Bo'z tumanidagi V.I.Lenin nomidagi 10-o'rta maktabda o'qigan.

O'rta maktabni tugatgach, Mirzo Ulug'bek nomidagi davlat pedagogika institutining o'zbek tili va adabiyot fakultetiga o'qishga kirgan, o'qishni bitirgach maktabda o'qituvchi bo'lib ish faoliyatini poshlagan.

1962-yili VLKSM, 1975-yil KPSS safiga qabul qilingan. 1977-yildan Bo'z tuman Partiya komitetida tashkisi-partiyaviy ishlari bollimi instruktori vazifasida ishladi. 1960-yildan boshlab she'r mashq qila boshlagan. Dastlabki she'ri 1965-yili tuman gazetasi sahifasida e'lon qilingana.

1970- yildan boshlab Andijon viloyatining "Komunist", Farg'ona viloyatining "Komuna" gazetalarida she'rkari bosib chiqarila boshlangan. Keyingi yillarda respublika matbuoti sahifalarida, xususan, "Yosh leninch'i", "O'zbekiston madaniyati", "Qishloq haqiqati" gazetalarida bir necha she'rlari chiqgan.

ISBN 978-9943-6324-1-7

9 789943 632417